

JAVOBGARLIKNI OG'IRLASHTIRADIGAN HOLATLARDA QASDDAN BADANGA SHIKAST YETKAZISHNING JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI

Usmonqulova Maftuna Vali qizi

Samarqand davlat universiteti

Fuqarolik huquqiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Usmonqulovamaftuna2000@gmail.com

ANNOTATSIYA

Qasddan badanga shikast yetkazish shaxsga qarshi jinoyatlarning eng keng tarqalgan turlaridan biridir. Mazkur turdagi jinoyatlar mamlakatimizda qayd etilgan jinoyatlar umumiy sonining salmoqli qismini tashkil etadi. Ushbu maqolada javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan badanga shikast yetkazish jinoyati tushunchasi, mazkur jinoyat tarkibi, kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari va javobgarlik masalalari bayon qilinadi. Javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan badanga shikast yetkazishning nazariy va amaliy ahamiyati yuzasidan xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *jinoyat, qasddan badanga shikast yetkazish, og'irlashtiruvchi holatlar, subyektiv belgilar, obyektiv belgilar.*

АННОТАЦИЯ

Умышленное причинение телесных повреждений является одним из наиболее распространенных видов преступлений против личности. Этот вид преступлений составляет значительную часть от общего числа преступлений, зарегистрированных в нашей стране. В данной статье раскрывается понятие преступления умышленного причинения телесных повреждений в случаяхотягчающей ответственности, сущность этого преступления, особенности квалификации и вопросы ответственности. Сделаны выводы о теоретическом и практическом значении умышленного причинения телесных повреждений при отягчающих обстоятельствах ответственности.

Ключевые слова: *преступление, умышленное причинение телесных повреждений, отягчающие обстоятельства, субъективные признаки, объективные признаки.*

ABSTRACT

Intentional bodily harm is one of the most common types of crimes against the person. This type of crime is a significant part of the total number of crimes recorded in our country. This article describes the concept of the crime of intentional bodily injury in cases of aggravated liability, the nature of this crime, the specifics of

qualification and issues of liability. Conclusions are given on the theoretical and practical significance of intentional bodily injury in cases of aggravated liability.

Key words: *crime, intentional bodily injury, aggravating circumstances, subjective signs, objective signs.*

KIRISH

Jamiyatimiz a'zolarining hayoti, sog'ligi va ularning shaxsiy daxlsizligi har qanday ko'rinishdagi tajovuzlardan qonun bilan qo'riqlanadi va bu masala jinoyat qonunchiligining muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Biz o'rganayotgan qasddan badanga shikast yetkazish jinoyati insonlarning hayoti va sog'lig'iga jiddiy xavf tug'diradi.

Badanga shikast yetkazish deb – inson tanasining biron-bir a'zosiga muayyan darajada tan jaroxati yetkazishni tushunmoq lozim. Ya'ni yetkazilgan tan jaroxati natijasida shaxsning sog'lig'ining yo'qolishi, yoki a'zolarining yo'qolishi, yoxud a'zolari saqlanib qolsa-da, ularning o'z faoliyatini yo'qotishi yoki badanning anatomik butunligining buzilishiga yoxud mehnat qobiliyatining ma'lum darajada yo'qotishi hollari yoki homilaning tushushini tushunish kerak.

Badanga yetkazilgan shikastning og'irlik darajasi sud meditsina ekspertizasi yordamida aniqlanadi.

Taniqli huquqshunos olim N.S.Tagansev “Tan jarohati jismoniy zo'rlik ishlatish yo'li bilan tanani og'ritish yoki azob berishning barcha hollarini o'z ichiga olishi kerak”,¹ deb ko'rsatib o'tgan.

N.S.Tagansevning bu fikrini bir qator olimlar qo'llab-quvvatlashgan, jumladan, professor A.A.Piantkovskiy ham yuqorida aytib o'tilgan fikrga qo'shilib, shunday deb yozgan edi: “Jinoyat huquqi nazariyasi nuqtai nazaridan qaraganda, badanga shikast yetkazish deganda qonunga zid ravishda bir shaxsning qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan boshqa shaxsning badaniga jismoniy zarar yetkazishi natijasida uning tanasining anatomik butunligi yoki organlaridan biron funksiyasining buzilishini tushunish kerak”².

A.A.Piantkovskiy urish, do'pposlash va boshqa jismoniy kuch ishlatish natijasida badanga og'riq yetkazish hollarini ham badanga shikast yetkazish belgilari qatoriga kiritgan edi. U urish, do'pposlash va jismoniy kuch ishlatish natijasida yuz beradigan oqibatlarni chuqur tahlil qilgan, lekin yuqoridagi nuqtai nazarini tasdiqlash uchun biron-bir asosli dalil ko'rsatmagan.

¹ Таганцев Н.С. Лекция по русскому уголовному праву. Часть особенная. С.Пб. 1984. с.139.

² Пиянтковский А.А., Меньшагин В.Д. Курс советского уголовного права. Особенная часть.Т.І. М., Гос.юр.издат., 1956. с.569.

A.A.Piantkovskiyning fikrini P.A.Duboves ham qo'llab-quvvatlagan edi. Jumladan u shunday deb yozadi: "Jismoniy kuch ishlatish natijasida badanni og'ritish harakatlari badanga shikast yetkazish hisoblanadi"³.

Hozirgi amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida badanga yetkazilgan shikastning darajasiga qarab uch turga bo'linadi:

- a) qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JKning 104-moddasi);
- b) qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JKning 105-moddasi);
- v) qasddan badanga yengil shikast yetkazish (JK ning 109-moddasi).

Yuqorida bayon etilganlarga asoslanib, xulosa qilib aytganda badanga shikast yetkazish deganda, qonunga xilof ravishda boshqa shaxsning badanini anotomik butunligining buzilishi, biror a'zosining umuman yo'qolishi, a'zosining o'z faoliyatini butunlay yoki ma'lum darajada yo'qolishi, yoxud sog'lig'ining yoki mehnat qobiliyatining ma'lum darajada buzilishi, ruhiy kasalikka chalinishi yoki homilaning tushushi, shuningdek badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishi tushuniladi.

Shu o'rinda badanga shikast yetkazish jinoyatlarining obyektiv va subyektiv belgilariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Badanga shikast yetkazish jinoyatining obyektiv belgilariga uning obyeksi va obyektiv tomoni kiradi.

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyatning umumiy, maxsus va bevosita obyektlarini ajratish odatiy holdir. Umumiy obyekt jinoiy javobgarlik to'g'risidagi amaldagi qonun himoyasiga qo'yilgan barcha ijtimoiy munosabatlarning yig'indisini tashkil qiladi, shuning uchun inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilish inson salomatligiga qarshi jinoyatlarning umumiy obyektiga kiradi. Umumiy obyekt deganda o'zining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ko'ra bir xil ijtimoiy munosabatlarning ma'lum doirasini qamrab oladigan, o'zaro bog'liq bo'lgan yagona jinoiy huquq normalari bilan himoya qilinishi kerak bo'lgan obyekt tushuniladi. Jinoyatning aniq obyeksi deganda tor munosabatlar guruhlarini birlashtiruvchi umumiy obyektning bir qismi tushuniladi. Jinoyatning bevosita obyeksi qonun chiqaruvchi tomonidan Jinoyat kodeksi Maxsus qismining ma'lum moddasi himoyasiga qo'yilgan va muayyan jinoyat belgilariga kiruvchi jinoyat tufayli zarar ko'rgan aniq ijtimoiy munosabatlardir.

Umumiy, maxsus va bevosita obyektlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida muayyan jinoyatning ta'minlanishiga qarab belgilanadi.

Qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarining subyektiv belgilariga uning subyeksi va subyektiv tomoni kiradi.

³ Дубовец П.А. Понятие телесных повреждений по советскому уголовному праву // Развитие советской демократии и укрепления законности. Минск, 1971.с.172.

Jinoyatning subyektiv tomoni jinoyatning ichki mazmuni, bu jinoyat sodir etganda shaxs ongida sodir bo'ladigan psixik jarayonlar, bu uning sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmish va uning oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabati hisoblanadi.

Sog'likka qarshi jinoyatlarning aksariyat subyektiv tomoni aybning qasddan shakli bilan tavsiflanadi. Ba'zi moddalarda motivlar va maqsadlar jinoyat belgilari sifatida kiritilgan. Masalan, Jinoyat kodeksining 104-moddasi, 2-qismining "e" bandida bezorilik niyatida sodir etilgan qasddan badanga shikast yetkazish uchun javobgarlik nazarda tutilgan. 104-moddasi, 2-qismining "i" bandida inson a'zolari yoki to'qimalaridan foydalanish maqsadida qasddan badanga og'ir shikast yetkazish uchun javobgarlikni belgilaydi. Jinoyatning subyektiv tomonining mazmuni qasd va ehtiyotsizlik ko'rinishidagi aybdur.

Shaxsning aybi har qanday jinoyatning asosiy, majburiy belgisidir, u subyektiv tomonning mavjudligini va ko'p jihatdan uning mazmunini belgilaydi. Aybning yo'qligi esa subyektiv tomonni va shu bilan birga jinoyat tarkibini istisno qiladi.

Badanga qasddan shikast yetkazishning subyektiv tomoni normaning o'zidan kelib chiqadigan bo'lsak, faqat qasddan sodir etish bilan tavsiflanadi. Bu holda niyat ham bevosita, ham bilvosita bo'lishi mumkin.

Javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan badanga shikast yetkazishning jinoyat-huquqiy jihatlarini yoritib o'tamiz. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida javobgarlikni og'irlashtiradigan holatda qasddan badanga og'ir shikast yetkazishning quyidagi belgilari ko'rsatilgan (JK 104 m. 2 q):

- a) homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan;
- b) o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan;
- v) o'ta shavqatsizlik bilan;
- g) ommaviy tartibsizlik jarayonida;
- d) tamagirlik niyatida;
- e) bezorlik oqibatida;
- j) millatlararo yoki irqiy adovat zamirida;
- z) diniy taassublar zamirida;
- i) kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) maqsadida;
- k) bir guruh shaxslar tomonidan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish.

Homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolning badaniga og'ir shikast yetkazish. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 56-modda, 1-qism "a" bandi homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan qilingan tajovuzni jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida ko'rsatgan, shu bilan birga JKning 104-modda, 2-qism, "a" bandida ham bunday holatni alohida og'irlashtiruvchi holat

sifatida ko'rsatgan. Chunki aybdorning ijtimoiy xavfli tajovuzi natijasida nainki ayolning sog'lig'i, balki yashash huquqiga ega bo'lgan homilaning hayoti yoki sog'lig'i ham xavf ostiga solinadi. Shuning uchun ham JKning 104-moddasi 2-qismi "a" bandi bilan javobgarlikka tortishning zaruriy belgisi etib, jabrlanuvchining homilador ekanligini aybdor ijtimoiy xavfli tajovuzni sodir etgunga qadar bilgan bo'lishi kerak. Ayolning homiladorligi aybdorga har xil yo'llar bilan ma'lum bo'lishi mumkin, ya'ni tashqi qiyofasidan, oldindan tanish bo'lganligidan, jabrlanuvchining o'zidan va boshqa shu kabi holatlar.

Qilmishni JK 104-moddaning ikkinchi qismi "a" bandi bilan kvalifikatsiya qilishi uchun homilaning tushgan tushmaganligi ahamiyatga ega emas. Homilaning tushishi 104-moddaning birinchi qismining zaruriy belgisidir. Ammo homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolning badaniga og'ir tan jarohati yetkazishi natijasida homilaning tushushiga sabab bo'lsa, bunday xolat JKning 104-moddasining birinchi va ikkinchi qismlari bilan kvalifikatsiya qilinib, JKning 33-moddasining ikkinchi qismiga asosan 104-moddaning og'irroq jazo belgilangan ikkinchi qism "a" bandi bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qilmishni O'zR JKning 104-moddasi 2-qismi "a" bandi bilan jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun homiladorlik muddatining ahamiyati yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 104-modda 2-qism "b" bandida javobgarlikni og'irlashtiradigan holatda qasddan badanga og'ir shikast yetkazishning bir turi sifatida **o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarish munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan sodir etish** belgilangan.

JKning 104-modda, 2-qism, "b" bandi bilan kvalifikatsiya etishning zaruriy belgisi jabrlanuvchining xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan yoki uning qonuniy talabiga to'sqinlik qilish maqsadida jabrlanuvchining o'zi yoki uning yaqin qarindoshlarini badaniga qasddan og'ir shikast yetkazishdir. Bunda motiv asosiy rol o'ynamaydi.

Shaxsning o'z burchini bajarishi munosabati bilan, masalan, bezorilik harakatlarining oldini olish yoki har qanday jinoyatning olidini olish burchini bajarganligi uning yaqin qarindoshiga nisbatan badanga og'ir shikast yetkazish 104-modda 2-qismi "b" bandida nazarda tutilgan jinoyatni tashkil qilaveradi.

O'ta shafqatsizlik bilan badanga og'ir shikast yetkazish. O'ta shafqatsizlik, eng avvalo, jinoyatni sodir etish usulida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham o'ta shafqatsizlik deganda, jabrlanuvchini o'ta qiynab, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish tushuniladi. Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatining o'zi

maqsad va usulidan qat'iy nazar shafqatsizlikdir. "O'ta shafqatsizlik" esa shafqatsizlikning yuqori darajasidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2007-yil 27-iyundagi 6-sonli "Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Plenum qarorining 9-bandida berilgan tushuntirishda aytilishiga ko'ra qilmishni JK 104-moddasi 2- qismining "v" bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun aybdorda jabrlanuvchiga bunday shikastni alohida jismoniy yoki ruhiy azob beruvchi usulda yetkazishga nisbatan qasd mavjud bo'lishi kerak.

Ommaviy tartibsizliklar jarayonida qasddan badanga og'ir shikast yetkazish. Ommaviy tartibsizliklar jarayonida qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatining ijtimoiy xavfliligi shundaki, bu usulda jinoyat sodir etilishida ikki obyektga zarar yetkaziladi:

birinchidan, jamiyat xavfsizligini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabat bo'lib, aholi tinchligini, jamiyatda amalda bo'lgan normalar turmush tarzi normalarini buzadi, mol-mulkka zarar yetadi;

ikkinchidan, ommaviy tartibsizliklar ishtirokchilari ma'lum shaxslarning hayoti va sog'lig'ini xavf ostida qoldiradigan tajovuzlar sodir etadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, ommaviy tartibsizlik ishtirokchilari tomonidan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyati tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, buning o'ziga xos xususiyatlari ko'zga tashlanadi, chunki bu jinoyat tarkibida ikkita mustaqil jinoyat tarkibi mavjud ekanligi yaqqol ko'rinadi, ya'ni JKning 244-moddasida ko'rsatilgan "ommaviy tartibsizlik" hamda "qasddan badanga og'ir shikast yetkazish" jinoyatlari (JK 104-modda).

Obyektiv tomondan – ommaviy tartibsizliklar jarayonida qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatida aybdor faol harakatlar qiladi. Jinoyat-huquqiy nuqtai nazardan bu jinoyat harakatsizlikdan sodir etilmaydi.

Ommaviy tartibsizliklar - olomon tomonidan sodir etiladigan jinoyat bo'lib, olomon ishtirokchilari tomonidan sodir etiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ommaviy tartibsizliklar jarayonida qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatida jabrlanuvchining badaniga og'ir shikast yetkazilishi bilan tugallangan jinoyat deb hisoblanadi.

Ta'magirlik niyatida qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyati har xil moddiy manfaatlarga ega bo'lish maqsadida (pul, mulk, mulkiy huquqlar, yashash maydoniga ega bo'lish huquqi, og'ir tan jarohati yetkazish uchun mukofot olish, kattaroq maosh to'lanadigan mansabga ega bo'lish) yoki moddiy majburiyatlardan qutulish (qarzini to'lash, aliment to'lovi, qildirgan xizmatiga pul to'lashdan qutulish

va h.k.z.) niyatida qasddan badanga og‘ir shikast yetkazishdan iborat tajovuzlar sodir etishda ifodalanadi.

Bezorilik oqibatida badanga og‘ir shikast yetkazish, o‘zining keng tarqalganligi jihatidan ikkinchi o‘rinda turadigan past niyatlarda sodir qilinadigan jinoyatga bezorilik kiradi. «O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining Maxsus qismida nazarda tutilgan jinoyatlarning 30 dan ortig‘i bezorilik niyatlarida sodir etilishi mumkin. Ularning beshtasida shunday niyat sub‘ektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi»⁴.

Bezorilik oqibatida badanga og‘ir shikast yetkazish tahlil etilayotgan jinoyatning murakkab tarkibi bo‘lib, 104-moddaning 2-qismi va 277-moddalar bilan jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinib, aybdorga JKning 59-moddasida belgilangan tartibda jazo tayinlanadi. Chunki 104-modda faqat badanga og‘ir shikast yetkazish uchun javobgarlikni belgilab, shunday jinoyat qasddan badanga og‘ir shikast yetkazishning kvalifikatsiya qilish belgisi hisoblanadi, xolos. Shuningdek, badanga og‘ir shikast yetkazish bezorilik tufayli sodir qilingan taqdirda ham, 277-modda uni qamrab ololmaydi. 277-modda faqat qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazishni qamrab oladi va bunday holda jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinmay, bezorilik sifatida javobgarlikka tortiladi (277-modda, 2-qismi “a” bandi hamda Plenum qarorining 12- bandi).

Millatlararo yoki irqiy adovat zamirida badanga og‘ir shikast yetkazish. Milliy yoki irqiy adovat zamirida sodir etilgan badanga og‘ir shikast yetkazish deganda, jabrlanuvchining u yoki bu millatga, irqqa yoki xalqqa mansubligi bois unga adovat u yoki boshqa irq, millat yohud xalqning hayot tarziga, turmushi, oilaviy taomili, madaniyati, an‘analariga nafrat tufayli qasddan badanga og‘ir shikast yetkazishni tushunish lozim.

Diniy taassublar zamirida badanga og‘ir shikast yetkazish jinoyati O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 104-moddasi, 2-qismining «z» bandida ko‘rsatilgan. Diniy taassublar deganda, diniy fanatizm ko‘r-ko‘rona, diniy g‘oyalarga va amaliy hayotda ularga rioya qilishda o‘ta yuqori darajada berilib ketish, boshqa dindagilarga va o‘zgacha fikrlaydiganlarga murossasizlikka asoslangan niyatlarni tushunish lozim.

Kishi a‘zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko‘chirish (transplantat) maqsadida badanga og‘ir shikast yetkazish.

Inson a‘zolari yoki to‘qimalarini ajratib olish maqsadida qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish ta‘magirlik niyatida sodir etilgan bo‘lsa aybdorning qilmishini

⁴ Qodirov A. «Jazoni og‘irlashtiruvchi xolatlarni» –T.: «Adolat» 1998. 87-bet

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 104-moddasi 2-qismining “d”, “i” bandlari bilan kvalifikatsiya qilish kerak.

Mazkur jinoyat faqat to‘g‘ri qasd bilan sodir etilishi mumkin. Zaruriy belgi sifatida asosiy maqsad – inson a‘zolaridan yoki to‘qimalaridan foydalanish hisoblanadi. Jinoyatning motivi g‘araz, a‘zolari transplantatsiya qilishning yangi usullarini qo‘llash bo‘yicha kasbiy eksperiment bo‘lishi mumkin.

Bir guruh shaxslar tomonidan qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish.

Bir guruh shaxslar tomonidan sodir qilinadigan jinoyatlar bir kishi tomonidan sodir qilingan jinoyatga nisbatan xavfliroq bo‘ladi, chunki bunda jinoyatchilarning kuchi va imkoniyatlari birlashadi. E.H.Hakimov: «Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyat jinoiy faoliyatning ancha xavfli shaklidir. Chunki bunda bir necha kishilarning kuchlari birlashadi va jinoiy maqsadga erishishning qo‘shimcha sharoitlari vujudga keladi»⁵, deb juda to‘g‘ri yozadi.

JKning 104-moddasida bir guruh shaxslar tomonidan badanga og‘ir shikast yetkazishda oldindan til biriktirish shart emas. Obyektiv tomondan ikki yoki undan ortiq shaxslarning harakati birlashishining o‘zi yetarlidir. Demak, oddiy ishtirokchilikda jabrlanuvchining badaniga og‘ir shikast yetkazish ushbu moddaning 2-qismi “k” bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun yetarlidir.

XULOSA

Javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarining obyektiga yondashuv yaxlit emas. Turli mualliflar bu masala bo‘yicha qarama-qarshi fikr va munozaralarni bildirgan. Biz obyekt inson salomatligi degan nuqtai nazarga qo‘shilishimiz mumkin.

Qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarning obyektiv tomoni harakatda ham, harakatsizlikda ham namoyon bo‘lishi mumkin. Obyektiv tomonni tahlil qilish sabab-natija munosabatlarini aniqlash, shuningdek, salbiy oqibatlarga olib keladigan vaziyatni aniqlashda qiyinchiliklarni ko‘rsatadi.

Subyektiv tomondan qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlar qasddan ham sodir etilishi bilan xarakterlanadi. Shunday ekan, qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarning predmetini aniqlashda amaliyotda ham, nazariy jihatdan ham muammolar mavjud emas. Bu jinoyatlar tarkibiga ham umumiy, ham maxsus subyekt kiradi: xuddi shunday qilmishi uchun ma‘muriy jazoga tortilgan shaxs; tegishli profil bo‘yicha oliy tibbiy ma‘lumotga ega bo‘lmagan shaxs, bemorga yordam ko‘rsatishga majbur bo‘lgan shaxs.

Qasddan badanga shikast yetkazish bilan bog‘liq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish muammolarini tahlil qilish, ushbu jinoiy harakatlarni kvalifikatsiya qilish

⁵ Э.Х.Хакимов. «Правовые вопросы соучастия в хищении социалистического имущества».

jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun qonun chiqaruvchi huquqiy tartibga solishdagi bir qator bo'shliqlarni to'ldirishi kerak degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

O'rganilgan sud amaliyotidan shunday xulosaga kelinadiki, aksariyat jabrlanuvchilar ojiz ahvoldagi shaxslardir. Shuni e'tiborga olgan holda qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatini og'irlashtiruvchi holati etib "aybdorga ayon bo'lgan ojiz ahvoldagi shaxsga" degan tushuncha bilan JKning 104-moddasi 2-qismi to'ldirilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.30.04.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [2023-yil 1-sentabrgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalari bilan] - T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2023 y. - 584b.
3. Rustamboev M.K. Tohirov F., Erkaho'jaev A.K. Jinoyat huquqi Maxsus qism. T.2000.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2007-yil 27-iyundagi 27- sonli "Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Plenum qarori. T.: 2007 y. 1-10 betlar.
5. Таганцев Н.С. Лекция по русскому уголовному праву. Часть особенная. С.Пб. 1984. с.139.
6. Пиантковский А.А., Меньшагин В.Д. Курс советского уголовного право. Особенная часть.Т.І. М., Гос.юр.издат., 1956. с.